

GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXSNING IJTIMOYILASHUVI VA IJTIMOIY XULQ-ATVORNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Saparova Sarvinoz

O'ralova Yulduz

Termiz Davlat Pedagogika Instituti

Tabiiy fanlar fakulteti

Kimyo ta'lim yo'nalishi 1- bosqich talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsning ijtimoiylashuvi, uning bosqichlari, turlari, shu bilan birga ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularni o'rganishda sotsiomadaniy yondashuvlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar . Shaxs, jamiyat, ijtimoiylashuv, institutlar, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, habitus, qadriyatlar.

Shaxs bu - alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjud sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy gumanitar fanlarda o'z yo'nalishi, tadqiqot obyekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi. U o'ta murakkab ziddiyatli, qarama-qarshi, o'zini o'zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, ruxiy-axloqiy va estetik aql idrok tafakkur obyekti sifatida hayot mantig'i jihatidan tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin.

Shaxs ko'pgina fanlarning, birinchi navbatda, falsafa, psixologiya, sotsiologiyaning o'rganish obekti hisoblanadi. Faylasuflar shaxsni uning dunyodagi mavqei nuqtai nazaridan faoliyat, bilish sub'ekti sifatida qaraydilar. Ularning diqqat markazida inson qanday qilib jamiyatning malakali a'zosiga aylanishi masalasi doimo bo'lib kelgan. Bu masalalar XIX asrning oxirlaridan sotsiologlar va ijtimoiy psixologlar tomonidan intensiv o'rganila boshlandi. XX asrning o'rtalarida sotsializatsiya o'zgarib mustaqil fanlararo tadqiqot sohasiga aylanadi.

Ijtimoiylashuvning quyidagi umumiy mexanizmlari mavjud;

An'anaviy - oila va yaqin muhit orqali o'quvchilarni ijtimoiy faollikka jalb etish, faoliyat va muloqotda maqbul shar- sharoitlarni yaratish. Institutsional - ijtimoiy institutlar va ta'lim muassasalari tomonidan o'quvchilarning rivojlanishi uchun zaruriy shart sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish. Shaxslararo-o'quvchilarni ijtimoiy aloqalar tizimiga jalb etish, ularda muloqotmandlik malakalarini rivojlantirish; Refleksiv o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baxolash, o'z-o'zini

loyixalashni pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali individual ongni taraqqiy etish. Hayot maqsadlariga erishish va individual vazifalarni amalga oshirishda inson ikki xil ijtimoiy xatti — harakatlardan foydalanishi mumkin: 1)tabiiy va 2)ana'naviy, ularning orasidagi farqlar asosiy xususiyatga ega."Tabiiy" xatti-harakatlar, alohida ahamiyatga va egosentrik har doim shaxsiy maqsadlarga erishish va bu maqsadlarga mos ravishda yo'naltirilgan. Shuning uchun, shaxs ijtimoiy xulq-atvor maqsadlari va vositalarining muvofiqligi haqida savol bermaydi: maqsadga har qanday vositalar bilan erishish mumkin va erishish kerak. Insonning "tabiiy" xatti-harakati ijtimoiy jihatdan tartibga solinmaydi, shuning uchun odatda axloqsizdek ko'rinishga egadir. Bunday ijtimoiy xatti-harakatlar tabiiydir, Chunki u organik ehtiyojlarni ta'minlashga qaratilgan. Jamiyatda "tabiiy" egosentrik xatti-harakatlar "taqiqlangan", shuning uchun u har doim ijtimoiy konvensiyalarga va barcha shaxslarning o'zaro imtiyozlariga asoslangan.

Sharq yulduz sanalgan Abu Rayhon Muhammad ibn Axmad Beruniy (973-1048) qarashlarida iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayonining mohiyati, ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog'liqlikda aks ettirgan.

Mutafakkir va davlat arbobi Yusuf xos Xojib o'zining "Qutadg'u bilik" asarida ham aynan ijtimoiylashuv masalasiga oid 4ta obraz vositasida mohiyatni ochib bergan; Birinchisi-adolat bo'lib u Podshox Kuntug'di timsolida, ikkinchisi davlat bo'lib, vazir Oyto'ldi, uchinchisi- aql bo'lib, vazirning o'g'li O'gdilmish, to'rtinchisi- qanoat bo'lib Uning qarindoshi O'zgirmish qiyofasida tasvirlangan.

Ijtimoiylashuv boshqa odamlar bilan og'zaki yoki og'zaki bo'lmagan muloqot jarayonida amalga oshiriladi. Masalan, sanoat jamiyatlarida millionlab odamlar yirik shaharlar ular ishga borish uchun taxminan bir vaqtda turishadi, garchi tashqaridan hech kim ularni majburlamasam ham - bu habitusning namoyonidir.

Habitus - bu ichki ijtimoiy tartib.

Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy-ma'naviy sifatlari qaro topishi ham tezlashadi. Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallar, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a'zosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun jamiyat u yoki

bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta'sir etadi. Bu ta'sir ta'limvositasida amalga oshadi. Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g'oyalar, ijtimoiy muhit ta'sir ko'rsatadi. Odamlar ijtimoiy me'yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o'rganadilar. Ijtimoiylashuv jaravoni ichki qaramaqarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak.

Ijtimoiylashuv ikki tomonlama, ko'p yo'nalishli jarayondir. Biologik omillar va madaniyat o'rtasida, shuningdek, sotsializatsiyani amalga oshiruvchilar va ijtimoiylashganlar o'rtasida o'zaro ta'sir mavjud.

Ijtimoiylashuv katta kuch hisoblanadi. Muvofiqlik istagi istisno emas, balki qoidadir. Bu ikkita sababga bog'liq: insonning cheklangan biologik imkoniyatlari va madaniyat tufayli yuzagakelgan cheklovlar. Cheklangan biologik qobiliyatlar haqida gapirganda nimani nazarda tutayotganimizni tushunish qiyin emas: odam qanotsiz ucha olmaydi va uni bunga o'rgatib bo'lmaydi. Har qanday madaniyat turli xil mumkin bo'lganlardan faqat ma'lum xulq-atvor namunalari tanlaganligi sababli, u insonning biologik imkoniyatlaridan qisman foydalangan holda sotsializatsiyani ham cheklaydi.

Muloqot jarayonida odamlar bir birlari bilan ma'lumot almashib, o'zaro ta'sir kursatibgina qolmay, balki bir birlarini to'g'riroq va aniqroq anglashga tushunishga va idrok qilishga harakat qiladilar. Bu tomon shaxsiy idrok va tushunish muammosi bilan bog'liqdir. Birgalikdagi faoliyat jarayonida shaxslarning bir birlarini to'g'ri tushunishlari va aniq idrok qilishlari muloqotning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Rus psixologi A.A.Badalev boshchiligida laboratoriya bir birlarini idrok qilish mexanizmlarini aniqlash borasida qator psixolog qonuniyatlarini kuzatgan. Bunday mexanizmlarga identifikasiya, refleksiya va stereotipizatsiyalar kiradi. Identifikasiya shunday psixolog xodisaki, bunda suhbatdoshlar bir-birlarini to'g'riroq idrok qilish uchun uzlarini bir birlarining o'rniga kuyib kurishga harakat qiladilar. Ya'ni o'zidagi, bilimlar, tasavvurlar, hislatlar orqali boshqa birovni tushunishga harakat qilish, o'zini birov bilan solishtirish (ongli yoki ongsiz) identifikasiyadir. Masalan, birinchi marta uchrashuvga ketayotgan yigitning ichki holatini uning urtogi yoki akasi tushunishi mumkin.

Odamlarning o'z-o'zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining harakterini va xajmini belgilaydi. Agar odam o'z-o'zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o'zini chetga tortib, tortinib yursa, demak, u boshqalar

bilan suhbatlashishda, til topishda qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, deyish mumkin.

Ijtimoiy persepsiya yoki odamlarning bir-birlarini to'g'ri idrok qilish va tushunish jarayoni muloqotning muhim muammolaridan biridir. Bu jarayon psixologik jixatdan murakkab bo'lib, unda muloqotga kirishayotgan tomonlarning har biri alohida ana shu idrokning ham obyekt, ham subyekt bo'lib faoliyat kursatadilar. Idrokning obyekt sifatida shaxs qaralganda unda hosil bo'ladigan "boshqa odam obrazi"ning barcha sifatleri va kirralari nazarda tutiladi. Bunday obraz paydo bo'lishiga xizmat qiladigan belgilarga: usha odamning tashki kiyefasi, uning qiyinishi, o'zini tutishi, hissiy holati, ovozi, nutki, qiliklari, yurishi va xokazolar kiradi. Lekin shularning ichida odamning yuzi muloqot mobaynida suhbatdoshga eng ko'p ma'lumot beradigan obyektidir. Shuning uchun ham telefonda suhbatlashgandan ko'ra yuzma-yuz suhbatlashish ancha oson va axborotlarga boydir.

Odamlarning bir birlarini to'g'ri idrok qilishlari ularning perseptiv, ya'ni hissiy bilish (idrok, sezish) sohasiga aloqador bo'lsa, bir birlarini tushunishi ularning tafakkur sohalariga bevosita taalluqli bo'lib, murakkab jarayondir. Boshqa odamni to'g'ri tushungan shaxs uning hissiy holatiga kira olgan hisoblanadi, boshqacha qilib aytganda, unda empatiya birovlarning his kechinmalarini tushuna olish qobiliyati rivojlangan bo'ladi.

Jamiyat mikesida oladigan bo'lsak, odamlarning turli sharoitlarda uzlarini tutishlari, xulq-atvorlarining boshqarilishi ma'lum psixologik qonuniyatlarga bog'liqligini kurish mumkin. Bunga sabab jamiyatga kabul qilingan turli normalar, qonun-qoidalar. Chunki o'zaro muloqot va o'zaro ta'sir jarayonlarida shunday xatti-harakatlar obrazlari kishilar ongiga singib boradiki, ularni har bir kishi norma sifatida kabo'l qiladi. Masalan, usmir bola, umuman yoshlar jamoat joylarida kattalarga o'rin bo'shatib berishlari kerakligi ham xulq-atvorning normasi. Shu normaga amal qilish yoki qilmaslik ijtimoiy na'zorat tizimi orqali boshqariladi. Ya'ni yo'qoridagi sharoitda agar usmir bola avtobusda kariyaga joy bo'shatmasa, jamoatchilik usha zaxoti uni tartibga chakiradi. Demak, har bir shaxs turli sharoitlarda turlicha rollarni bajaradi, bu rollarning qanday bajarilayotganligi, odamlarning kutishlariga mos kelishligi ijtimoiy nazorat tizimi orqali kuzatib turiladi. Shuning uchun ham muloqotga kirishgan kishilar doimo o'z xulq-atvorlarini, qolaversa, o'zgalarning xulq-atvorini na'zorat qilib, harakatlarda bir-birlariga moslashadilar.

Xulosa sifatida shuni aytish o'rinliki, biz tug'ilib o'sgan muhitdagi madaniy ustanovkalar bizning xulq-atvorimizga shunchalik katta ta'sir o'tkazadiki, biz individuallik va iroda erkiga ega emasmiz, degan tasavvur paydo bo'lishi mumkin. Individ tomonidan ijtimoiy rollar va odob-axloq normalarini o'zlashtirilishiga alohida urg'u berishi, ijtimoiylashuv xodisasining ijtimoiy tajribani boshqa individga yetkazishning ajralmas xususiyati sifatida ko'rilishi bilan bog'liq xolat ekanligidadir. Bundan ko'rinib turibdiki shaxsning ijtimoiylashuvi nafaqat hozirgi zamon global masalasigina bo'lib qolmay bir necha asrlar avval yashab o'tgan sharq mutafakkirlarining ham asarlarida alohida yoritilgan mavzulardan bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashurova, S. (2023). SOG 'LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO 'G 'RISIDAGI TASAVVURLARINING SHAKLLANISHI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
2. Ashurova, S., & Numonova, A. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGY IN FORMING TEACHERS' PEDAGOGICAL ABILITY. *Academia Repository*, 2(11), 46-53.
3. Ашурова, Ш. (2023). Оилада эр–хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан таҳлил қилиниши. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 67-71.21.
4. qizi Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO 'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O 'ZIGA XOS JHATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(9 SPECIAL), 418-421.
5. qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10 SPECIAL), 32-35.
6. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 363-368.
7. Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 6-9. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>

8. Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/arti>
9. Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>
10. Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS. World Bulletin of Social Sciences, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>
11. Erdanova Zamira Olimovna. (2023). THE CONTENT AND ESSENCE OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. World Bulletin of Social Sciences, 27, 18-22. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3222> Zamira Opa Ish, [24.04.2024 15:08]
13. Erdanova Zamira Olimovna. (2023). CONDITIONS OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. Academia Repository, 4(10), 1–9. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/99>
14. Erdanova Zamira Olimovna. (2023). ILLUMINATION OF THE PROBLEM OF USING THE PEDAGOGICAL APPROACHES OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. World Bulletin of Social Sciences, 27, 13-17. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3221>